



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

NUTQ AKTLARI NAZARIYASIDA DIREKTIVLIK VA XUSHMUOMALILIK MUAMMOSI: ANTROPOTSENTRIK TAHLIL

Xamraqulova Farida Mamasoliyevna
Andijon davlat chet tillari instituti, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada nutq aktlari nazariyasi doirasida xushmuomalalik (politesse) konsepti fransuz tilidagi misollar asosida keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqot antropotsentrik yondashuvga tayangan holda tilni insonning kognitiv, ijtimoiy va kommunikativ faoliyati bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin etadi. Nutq aktlari nazariyasining asosiy tushunchalari, xususan lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar xushmuomalalik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Ayniqsa direktiv nutq aktlarining (buyruq, iltimos, taklif, maslahat) pragmatik xususiyatlari va ularning xushmuomalilik darajasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda fransuz tilida xushmuomalalikning ko'pincha indirektlik, modal fe'llar va shart mayli orqali ifodalanishi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari nutq aktlari nazariyasi xushmuomalalikni o'rganishda samarali metodologik asos ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: nutq aktlari, xushmuomalalik (politesse), pragmatika, antropotsentrik yondashuv, direktiv nutq aktlari, indirektlik strategiyalari, kommunikativ vaziyat

ПРОБЛЕМА ДИРЕКТИВНОСТИ И ВЕЖЛИВОСТИ В ТЕОРИИ РЕЧЕВЫХ АКТОВ: АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Хамракулова Фарида Мамасолиевна
Андижанский государственный институт иностранных языков, преподаватель

Аннотация

В данной статье проводится комплексный анализ концепта вежливости (politesse) в рамках теории речевых актов на материале французского языка. Исследование основано на антропоцентрическом подходе, согласно которому язык рассматривается как неотъемлемая часть когнитивной, социальной и коммуникативной деятельности человека. Основные положения теории речевых актов, включая локутативный, иллокутивный и перлокутивный акты, анализируются с точки зрения вежливости. Особое внимание уделяется директивным речевым актам (приказ, просьба, совет, предложение) и их прагматическим особенностям. Установлено, что во французском языке стратегии вежливости часто реализуются посредством косвенности, модальных глаголов и форм условного наклонения. Результаты исследования подтверждают значимость теории речевых актов как эффективной методологической базы для изучения вежливости.

Ключевые слова: речевые акты, вежливость (politesse), прагматика, антропоцентрический подход, директивные речевые акты, стратегии косвенности, коммуникативная ситуация

THE PROBLEM OF DIRECTIVENESS AND POLITENESS IN SPEECH ACT THEORY: AN ANTHROPOCENTRIC ANALYSIS

Xamraqulova Farida Mamasoliyevna
Andijan State Institute of Foreign Languages, Teacher

Abstract

This article presents a comprehensive analysis of the concept of politeness (politesse) within the framework of speech act theory, based on examples from the French language. The study adopts an anthropocentric approach, viewing language as an integral component of human cognitive, social, and communicative activity. Key notions of speech act theory, including locutionary, illocutionary, and perlocutionary acts, are examined from the perspective of politeness. Particular attention is paid to directive speech acts (orders, requests, advice, suggestions) and their pragmatic characteristics. The analysis shows that in French, politeness strategies are frequently realized through indirectness, modal verbs, and conditional forms. The findings confirm that speech act theory constitutes an effective methodological framework for the study of politeness phenomena.

Keywords: speech acts, politeness (politesse), pragmatics, anthropocentric approach, directive speech acts, indirectness strategies, communicative context

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslik fanida yuz bergan paradigmalar o'zgarishlar tilni tadqiq etishda antropotsentrik yondashuvning yetakchi mavqega chiqishiga olib keldi. Ushbu yondashuv doirasida til endilikda insondan ajratilgan, mustaqil va yopiq tizim sifatida emas, balki inson tafakkuri, kognitiv faoliyati, ijtimoiy tajribasi hamda kommunikativ ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Natijada zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining shakliy va struktur xususiyatlaridan ko'ra, ularning real nutqiy qo'llanilishi, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, kommunikativ niyat va kontekst masalalari markaziy o'ringa chiqdi. Bu holat pragmatik tilshunoslikning jadal rivojlanishiga hamda tilni "inson faoliyati mahsuli" sifatida o'rganishga bo'lgan ilmiy qiziqishni kuchaytirdi.

Antropotsentrik paradigma doirasida shakllangan pragmatik yondashuv til birliklarining ma'nosini faqat lug'aviy yoki grammatik jihatdan emas, balki ularning nutqiy vaziyatda qanday maqsadga xizmat qilishi orqali izohlashni taqozo etadi. Xususan, "so'zlovchi ma'nosi" tushunchasi pragmatikaning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida nutqiy birlikning haqiqiy ma'nosi ko'pincha so'zlovchining kommunikativ niyatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Aynan shu nuqtai nazardan nutq aktlari nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u nutqni shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy va kommunikativ harakat sifatida talqin qiladi. Bu jarayonda xushmuomalalik (politesse) kategoriyasi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatlash, ijtimoiy masofani saqlash va kommunikativ samaradorlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy pragmatik tilshunoslikda xushmuomalalik strategiyalari, ayniqsa direktiv nutq aktlari doirasida hali ham chuqur va tizimli tahlilni talab etadi. Buyruq, iltimos, taklif va maslahat kabi direktiv aktlar tinglovchining erkinligi va "ijtimoiy yuzi"ga bevosita ta'sir ko'rsatgani sababli, ular xushmuomalalik nuqtayi nazaridan eng "xavfli" kommunikativ birliklar hisoblanadi. Fransuz tili materiallari asosida olib borilgan ushbu tadqiqot direktiv nutq aktlarining pragmatik xususiyatlarini, ularning xushmuomalalik darajasini belgilovchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, natijalari qiyosiy tilshunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda pragmatika nazariyasini rivojlantirish uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Mazkur tadqiqotda zamonaviy pragmatik tilshunoslik va antropotsentrik paradigma doirasida shakllangan nazariy qarashlarga tayangan holda bir qator umumilmiy va maxsus lingvistik metodlardan foydalanildi. Xususan, nutqiy birliklarning pragmatik xususiyatlarini aniqlashda tavsifiy (deskriptiv) metod asosiy metod sifatida qo'llanilib, fransuz tilidagi direktiv nutq aktlari ularning grammatik shakli, illokutiv kuchi va xushmuomalalik darajasi nuqtayi nazaridan tavsiflandi. Shuningdek, nutq aktlarining real kommunikativ vaziyatda qanday talqin

qilinishini aniqlash maqsadida pragmatik tahlil va kontekstual tahlil metodlaridan keng foydalanildi. Bu metodlar nutqiy birliklarning yuzaki shakli bilan ularning yashirin kommunikativ ma'nosi o'rtasidagi munosabatni ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqotda xushmuomalalik strategiyalarining namoyon bo'lishini aniqlash uchun qiyosiy-tahliliy metod ham qo'llanildi. Mazkur metod orqali bir xil pragmatik maqsadning turli grammatik va leksik vositalar yordamida, turli darajadagi xushmuomalalik bilan ifodalanishi tahlil qilindi. Ayniqsa, buyruq, iltimos, taklif va maslahat kabi direktiv nutq aktlari o'zaro qiyoslanib, ularda modal fe'l lar, savol shakllari, shart mayli (conditionnel), indirektlik hamda etik formulalarning xushmuomalilikni oshirishdagi roli aniqlandi. Bundan tashqari, nutq aktlari tasnifida klassifikatsiya metodi qo'llanilib, J. Ostin, J. Serl va J. Lich tomonidan taklif etilgan tasniflar xushmuomalalik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Mazkur muammoning o'rganilish darajasiga to'xtaladigan bo'lsak, nutq aktlari nazariyasi va xushmuomalalik masalalari jahon tilshunosligida keng tadqiq etilgan. J. Ostin va J. Serlning fundamental ishlari nutq aktlarini pragmatik jihatdan tahlil qilish uchun mustahkam nazariy asos yaratgan bo'lsa, J. Lich, D. Vunderlih, K. Ayjmer kabi olimlarning tadqiqotlarida xushmuomalilik strategiyalari va ularning ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi chuqur yoritilgan. Fransuz tilida xushmuomalilik va direktiv aktlar masalasi ham bir qator tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, ularni antropotsentrik paradigma doirasida, ayniqsa nutq aktlari tasnifi bilan uzviy bog'liq holda tizimli tahlil qilish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish va fransuz tilidagi direktiv nutq aktlarining pragmatik xususiyatlarini xushmuomalalik strategiyalari bilan bog'liq holda yoritishga qaratilganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Mazkur tadqiqot natijalari zamonaviy pragmatik tilshunoslikda nutq aktlari, ayniqsa direktiv nutq aktlarini antropotsentrik paradigma asosida tahlil qilish muhim ekanligini ko'rsatdi. Fransuz tilidagi empirik materiallar asosida olib borilgan tahlillar nutqiy birliklarning grammatik shakli bilan ularning real kommunikativ vazifasi o'rtasida doimo to'liq moslik mavjud emasligini tasdiqladi. Bu holat J. Ostinning nutqni ijtimoiy harakat sifatida talqin qiluvchi nazariy qarashlariga mos keladi. Olim nutqiy birlikning mohiyati uning shaklida emas, balki bajarilayotgan illokutiv harakatda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [1]. Masalan, Antuan de Sent-Ekzyuperining *"Le Petit Prince"* asaridan olingan Petit Prince va Tulki orasidagi dialogni keltirishimiz mumkin. Tulki Petit Prince ga shunday deydi :

S'il te plaît... apprivoise-moi ! (Iltimos... meni qo'lga o'rgat.)

Pragmatik tahlil (direktiv nutq akti nuqtayi nazaridan) qaralganda mazkur nutqiy birlik shaklan imperativ grammatik konstruksiyada ifodalangan bo'lib, yuzaki jihatdan bu to'g'ridan-to'g'ri buyruq sifatida talqin qilinishi mumkin. Biroq antropotsentrik paradigma asosida yondashilganda, ushbu gapning real kommunikativ vazifasi buyruq berish emasligi ayon bo'ladi. Ya'ni Tulkining mazkur nutqi ijtimoiy mavqe jihatidan teng bo'lmagan (inson – hayvon) subyektlar o'rtasida kechadi; iltimos shakli ("s'il te plaît") orqali yumshatilgan; emotsional va munosabatga yo'naltirilgan xarakterga ega. Shu sababli bu yerda grammatik shakl (imperativ) bilan illokutiv kuch o'rtasida to'liq moslik mavjud emas. Gap buyruq emas, balki iltimos qilish, aloqa o'rnatishga undash, yaqinlik va ijtimoiy munosabat yaratishga qaratilgan direktiv nutq akti sifatida namoyon bo'ladi. Aynan Tulkining nutqida: lokutiv akt – "meni qo'lga o'rgat" mazmuni; illokutiv akt – iltimos, do'stlik taklifi; perlokutiv akt – Petit Prince'ning Tulki bilan munosabat o'rnatishga roziligi ketma-ket amalga oshadi.

Demak, *Petit Prince* asaridagi ushbu misol direktiv nutq aktlarining bilvosita shaklda ifodalanishini, grammatik struktura bilan pragmatik funksiya o'rtasida nomuvofiqlik mavjudligini, nutq aktlarini antropotsentrik yondashuv asosida tahlil qilish zarurligini yaqqol tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, fransuz tilida grammatik jihatdan xabar yoki savol shaklida ifodalanagan gaplar pragmatik jihatdan buyruq, iltimos yoki taklif vazifasini bajarishi mumkin. Ushbu natija J. Serl tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari tasnifi bilan izohlanadi. Serlga ko'ra, direktiv nutq aktlari tinglovchini ma'lum bir harakatga undashga qaratilgan bo'lib, ularning illokutiv kuchi ko'pincha kontekst va so'zlovchi niyati orqali aniqlanadi [6]. Ko'rinish turibdiki, nutq akti faqat grammatik yoki semantik birlik emas, balki subyektning niyati, ijtimoiy rol va status, muloqot konteksti, psixologik omillar bilan belgilanadigan murakkab interaksion hodisadir. Shu ma'noda direktivlik darajasi absolyut emas, balki situativ va shaxsga yo'naltirilgan kategoriyadir. Bir xil mazmundagi buyruq turli kontekstlarda turlicha qabul qilinishi mumkin[3]. Misol uchun o'qituvchi – *Daftarigni och !* degan jumlasini institutsional jihatdan legitim direktiv deb mulohaza qilinsa do'stlar o'rtasida esa shu mazmundagi buyruq qo'pol tuyilishi mumkin va yumshoqroq shakl tanlanadi: *- Daftaringni ochsang-chi !*

Bu fikrlar o'zbek tilshunosligida ham qo'llab-quvvatlanadi. Xususan, N. Mahmudov nutqiy birliklarning haqiqiy ma'nosi faqat grammatik shakl bilan belgilanmasligini, balki nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va so'zlovchi pozitsiyasi bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Olim nutq madaniyati doirasida direktiv mazmundagi gaplar ko'pincha yashirin, yumshatilgan shakllarda ifodalanishini pragmatik hodisa sifatida izohlaydi [8]. Tadqiqot natijalari direktiv nutq aktlarining xushmuomalilik darajasi ularning ifoda vositalari bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatdi. To'g'ridan-to'g'ri buyruq shakllari tinglovchining erkinligini cheklagani sababli past darajadagi xushmuomala aktlar sifatida namoyon bo'lsa, indirekt shakllar kommunikativ bosimni kamaytiradi. Bu holat P. Braun va S. Levinson tomonidan ishlab chiqilgan "ijtimoiy yuz" nazariyasida batafsil asoslangan bo'lib, direktiv aktlar tinglovchining "salbiy yuzi"ga tahdid soluvchi nutqiy harakatlar sifatida baholanadi (Brown & Levinson, [2]).

Fransuz tilidagi materiallar tahlili savol shakllari, modal fe'llar (*pouvoir*, *devoir*), shart mayli (*conditionnel*), etik formulalar (*s'il vous plaît*) va leksik yumshatuvchi vositalar xushmuomalilik darajasini sezilarli oshirishini ko'rsatdi. Bu natija J. Lich tomonidan ilgari surilgan xushmuomalilik prinsiplari bilan hamohang bo'lib, olim kommunikativ jarayonda manfaatlar muvozanatini saqlash xushmuomalilikning asosiy vazifasi ekanligini qayd etadi [4]. Masalan A.S.Egzuperining Petit Prince asarida ushbu holatlar ko'p uchraydi, ya'ni modal fe'llar **"pouvoir" (qila olmoq)** va **"devoir" (kerak bo'lmoq)** xushmuomalilik darajasini oshiradi. Le Petit Prince bu ko'p uchraydi: masalan, uchuvchi (*l'aviateur*) bilan suhbatlarda Petit Prince ning savollari ko'pincha ***"Puis-je vous poser une question ?"* (Sizga savol berishim mumkinmi?)** shaklida keladi. Modal fe'l ***pouvoir*** ishlatilishi orqali Petit Prince bevosita buyruq bermay, imkoniyatni so'raydi, bu esa xushmuomalilikni oshiradi.

Mazkur jihat M. Yo'ldoshevning pragmatikaga oid qarashlarida ham alohida ta'kidlangan. Olim nutq aktlarida indirektlik va implitsitlik hodisalarini muloqot samaradorligini oshiruvchi muhim pragmatik vositalar sifatida baholab, ayniqsa iltimos va maslahat kabi direktiv aktlarda bu vositalar ijtimoiy munosabatlarni muvozanatlashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi [9].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, direktiv nutq aktlarida xushmuomalilik strategiyalarining tanlanishi ijtimoiy masofa (vertikal va gorizont), kommunikativ vaziyat hamda madaniy omillar bilan belgilanadi. Fransuz tilida rasmiy muloqot sharoitida indirektlik va ehtiyotkor nutqiy shakllar ustuvor bo'lsa, norasmiy va yaqin munosabatlarda bevosita direktivlarning qo'llanishi kommunikativ me'yor sifatida qabul qilinadi. Bu holat D. Vunderlih tomonidan ta'kidlangan nutqiy xulq-atvorning ijtimoiy shartlanganligi haqidagi qarashlarni tasdiqlaydi [7].

Umuman olganda, nutq aktlarini qat'iy va statik tasnif asosida emas, balki pragmatik

kontekst, soʻzlovchi niyati, ijtimoiy munosabatlar hamda xushmuomalilik strategiyalarini hisobga olgan holda tahlil qilish samaraliroq ekanligini koʻrsatdi. Oʻzbek va xorijiy tilshunolar qarashlarining uygʻun tahlili fransuz tilidagi direktiv nutq aktlarini antropotsentrik yondashuv asosida chuqurroq yoritish imkonini berdi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot zamonaviy tilshunoslikda yetakchi oʻrin egallagan antropotsentrik paradigma doirasida nutq aktlari nazariyasi va xushmuomalilik kategoriyasining oʻzaro bogʻliqligini yoritishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida til birliklarining maʼnosi ularning grammatik shakli bilan cheklanib qolmasdan, balki soʻzlovchining kommunikativ niyati, nutqiy vaziyat va ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanishi aniqlandi. Bu holat pragmatikaning “kontekstdagi maʼno” sifatidagi talqinini yana bir bor tasdiqladi hamda nutqiy muloqotning dinamik va koʻp qirrali tabiatini namoyon etdi.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, nutq aktlari orasida direktiv nutq aktlari xushmuomalilik nuqtayi nazaridan eng sezgir va murakkab soha hisoblanadi. Fransuz tilidagi materiallar asosida olib borilgan tadqiqot buyruq, iltimos, taklif va maslahat kabi aktlar bir xil pragmatik maqsadga ega boʻlishiga qaramay, ularning xushmuomalilik darajasi sezilarli darajada farqlanishini koʻrsatdi. Ayniqsa, savol shakli, modal feʼllar, shart mayli (conditionnel), etik formulalar va indirektlik strategiyalari tinglovchining ijtimoiy maqomi hamda shaxsiy hududini hisobga olishga xizmat qilib, kommunikativ bosimni kamaytiruvchi asosiy vositalar ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari nutq aktlarini qatʼiy va statik tasnif doirasida emas, balki kontekst, ijtimoiy masofa va xushmuomalilik strategiyalarini inobatga olgan holda tahlil qilish zarurligini koʻrsatdi. Fransuz tilidagi direktiv nutq aktlarini pragmatik va antropotsentrik yondashuv asosida oʻrganish tilshunoslikda madaniyatlararo kommunikatsiya, qiyosiy pragmatika va nutq madaniyatini tadqiq etish uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Mazkur ish kelgusida boshqa tillar materiallari asosida olib boriladigan qiyosiy tadqiqotlar uchun ham metodologik asos boʻlib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Austin J. L. How to Do Things with Words. — Oxford: Oxford University Press, 1962. — 166 p.
2. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987. — 345 p.
3. Kerbrat-Orecchioni C. Les interactions verbales. Tome II. — Paris: Armand Colin, 1992. — 352 p.
4. Leech G. N. Principles of Pragmatics. — London; New York: Longman, 1983. — 250 p.
5. Levinson S. C. Pragmatics. — Cambridge: Cambridge University Press, 1983. — 420 p.
6. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 1969. — 203 p.
7. Wunderlich D. Arbeitsbuch Semantik. — Königstein: Athenaum Verlag, 1980. — 310 p.
8. Mahmudov N. Nutq madaniyati va uslubiyat masalalari. — Toshkent: Fan, 2007. — 160 b
9. Yoʻldoshev M. Matn va uning pragmatik talqini. — Toshkent: Akademnashr, 2014. — 180 b.